

8/

"Yoshlar ishlari agentligi kubogi" shaxmat turnirida qatnashish uchun ro'yxatdan o'tganlar:

Havaskor ayollar: 102 504

Havaskor erkaklar: 211 374

Professional ayollar: 3 610

Professional erkaklar: 10 390

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazeta

22 (16475)
2022-yil, 20-aprel
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Yoshlar siyosati
3-bet

Yoshlar taraqqiyot "drayveri"ga aylanmoqda

Yosh kitobxon
4-bet

"Yuzimizni yorug' qilasan!" derdi onam

Uchqun
7-bet

Mening Lolitam



“YASHIL MAKON”

BIR KUNDA 42 200 TA DARAXT EKILDI

2-betga
qarang ↓


KONFERENSIYA YANGI KUCH VA G'UYALAR BERDI

Iqbol PARDAVEVA,
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbirlari



Baxtiyor MIRZOTOV,
Yoshlar ishlari agentligi Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i:

Konferensiyada Namangan viloyati yoshlar bilan ishlash tajribasi namuna sifatida tanlab olingani bizni nafaqat xursand qildi, balki yangi loyihalar ishlab chiqishimizga undadi. Namuna sifatida ko'rsatish mumkin bo'lgan yana bir loyihamiz bu yoshlar bepul ingliz tili saboqlarini olayotganidir. Loyihaga viloyatimizdagi ko'zga ko'ringan 6 ta o'quv markazi birlashtirilib, ular eng chekka hududlardagi 34 ta maktabda "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Mehr daftari" ga ro'yxatga olingan yoshlar uchun ingliz tili saboqlari berib boradi. Loyiha viloyat hokimligining mahalliy byudjetidan 2 milliard so'mdan ziyodroq miqdorda moliyalashtirildi. Konferensiyaga bizga ko'p narsa berdi. Olgan bilimlarimiz bajarilajak amaliy ishlarimizga ilmiy yo'riqnomaga bo'lib xizmat qiladi. Endilikda har bir mahallada "Yangi O'zbekiston - ziyo maskani" kutubxonasiing filialini tashkil etamiz.



Shukur MALIKOV,
Do'stlik tumanidagi Alisher Navoiy nomi mahalla yoshlar yetakchisi:

Mazkur konferensiya yanayam puxta reja tuzib olishimga turki berdi. Mahalladagi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish-bizning asosiy vazifalarimizdan biri. Shu maqsadda yoshlar festivallari va besh muhim tashabbusni yanada ommallashtiryapmiz. Ihsiz bo'lgan 69 nafar yoshning doimiy ish yoki tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish orqali bandligini ta'minlash rejamning yana bir qismi. Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish orqali mahallada jinoyatchilik sodir etilmasligini ta'minlash ham rejamizdan o'rin oldi. Bunda mahalla profilaktika inspektori bilan uzviy hamkorlikni yanada mustahkamlash va mahallada yashovchi uyushmagan yoshlardan iborat "Qalqon" guruhining bevosita ishtirokini ta'minlash maqsadida dastlabki ishlarni boshlab yubordik.

Gazetamizning o'tgan sonida yoshlarga oid davlat siyosatida yangi tashabbuslar, mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini yo'lga qo'yishdagi muammolar, kamchiliklar, yoshlar yetakchilari davlat xizmatiga tayyorlash masalalariga bag'ishlangan "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rni" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi haqida batafsil ma'lumot bergan edik.

Yoshlar siyosati eng muhim masalalardan biri ekanini inobatga olinib, bu siyosatni amalga oshirishda mahallalarda yoshlar yetakchilari eng quyi pog'onadagi davlat xizmatchisi sifatida faoliyat yurita boshladi. Yetakchilar uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berildi. Respublika ishchi guruhi hududlarga tashrifi davomida aniqlangan muammolar, kamchiliklar yuzasidan muloqot uyushtirdi. Yo'l qo'yilayotgan xatolarni bartaraf etish bo'yicha to'g'ri yo'l ko'rsatildi, tushuntirishlar berildi.

Konferensiyada yoshlarga oid davlat siyosatining qonunchilik amaliyoti, yoshlar yetakchilarini davlat xizmatiga tayyorlash, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda sportning o'rni kabi mavzularda olimlar, mutaxassislar so'zga chiqib, o'zlarining qimmatli maslahatlari va tavsiyalarini berishdi.

Xo'sh, konferensiyaga o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha oldimi? Yoshlar yetakchilari mazkur tadbirdan qanday xulosalar oldi, kelgusidagi rejalariga qanday yangi bandlar qo'shimcha qildi?



Bektursun YO'LDASHEV,
Gurlan tumanidagi "Nukus" mahallasi yoshlar yetakchisi:

Faoliyatimning ilk kunlaridanoq mahallada profilaktika inspektori bilan birgalikda qo'shma chora-tadbirlar dasturini tasdiqlab olganmiz. Dastur asosida har payshanba "Profilaktika kuni" deb e'lon qilinib, profilaktika tadbirlari faol tashkil etib kelinmoqda. Reydlarda soat 22:00 dan keyin ota-ona qaromog'isiz yurgan voyaga yetmaganlar aniqlanib, ular bilan tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Konferensiyada ilgari surilgan taklif-mulohazalar asosida bundan keyingi ish rejamga aniq yo'nalishlarni belgilab oldim. Yoshlar jinoyatchiligining oldini olish oldimizda turgan eng muhim vazifalarimizdan biri ekanini chuqur his etdik. Endi biz qolgan yetakchilarga o'z ishimiz bilan o'rnak bo'lmog'imiz kerak. Konferensiyadan qaytgach, birinchi gilda mahallamizda gilam yuvish xizmatini yo'lga qo'yishga kirishdim. Buning uchun tadbirkorlik qilish istagidagi yosh yigitga mahalladan joy ajratdik va kredit olish uchun yordam berdik. Bu orqali yana ikkita yoshning bandligini ta'minlashimiz mumkin.

38,3

GEKTAR BOG' YARATILDI



Yoshlar ishlari agentligi hamda bir qator vazirlik, idora va tashkilotlar hamkorligida Sergeli tumanidagi "Xonobod" mahallasida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxt ekish aksiyasi o'tkazildi.

Loyihada faol yoshlar, jumladan, yosh tadbirkorlar, kitobxonlar, blogerlar, sportchilar, san'atkorlar, "Kelajak liderlari" klubi va Yoshlar parlamenti a'zolari, volontyorlar, talaba-yoshlar, olimlar, yoshlar yetakchilari va sardorlar ishtirokida 2 gektar bo'sh yer maydoniga 1 000 dona pavloniya daraxti ekilib, bog' yaratildi.


Ushbu aksiya respublika miqyosida o'tkazilib, jami 38,3 gektar yer maydonga pavloniya, oq terak, majnuntol, gilos, archa, tut kabi 42 ming 200 ta daraxt ko'chatlari ekildi.

YOSHLAR TARAQQIYOT “DRAYVERI”GA AYLANMOQDA

Yangi O'zbekiston yoshlari – mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan jadal va keng ko'lamli islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi va faol ishtirokchisi bo'lib maydonga chiqmoqda.

15-aprel kuni bo'lib o'tgan “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rnini” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ana shu maydonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilarining o'rnini, ularning faoliyatini samarali tashkil etish, yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirishga doir amaliy takliflar ishlab chiqilishi bilan ahamiyatli bo'ldi.

SAYYORAMIZ AHOLISINING YARMIDAN KO'PINI 30 YOSHGACHA BO'LGAN INSONLAR TASHKIL ETSA-DA, BUTUN DUNYO BO'YICHA YOSH DEPUTATLARNING ULUSHI 2,6 FOIZGA HAM YETMAYDI. O'ZBEKISTONDA BU KO'RSATKICH 6 FOIZDAN OSHGANI YUQORI BAHOLANADI.



Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimiz rahbarining doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Shu bois keyingi yillarda kelajagimiz egalari bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi – “Yoshlar dasturi” va “Yoshlar dasturlari” hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda. Yangi tizim asosida olib borilgan amaliy ishlar natijasida “Yoshlar dasturi”ga kirgan minglab yigit-qizlarning ko'plab muammolari hal etilmoqda.

Jumladan, yoshlarning tadbirkorlik loyihalariga imtiyozli kreditlar, dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun yerlar ajratilmoqda. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari bo'lgan talabalarning kontrakt puli to'lab berilmoqda, ishsiz yoshlarning bandligi ta'minlanmoqda.

Qonunchilik palatasida ham yoshlar bilan muloqot qilish, ularning muammolarini eshitish, yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini takomillashtirib borish borasida yangi tizim yaratilgan. Jumladan, Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya tuzilgan. Qonunchilik palatasi huzurida 250 nafar faol va tashabbuskor yoshlardan iborat Yoshlar parlamenti tashkil qilingan.

Nuridinjon ISMOILOV,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining spikeri



Qonunchilik palatasida yoshlar qonun qabul qilish jarayonlaridan boshlab siyosiy partiyalar o'rtasida raqobat bo'ladigan majlis va tortishuvlarda ham bevosita ishtirok etib, jarayonni o'z ko'zi bilan ko'rishi, deputatlar bilan yaqindan muloqot qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bu esa yoshlarga parlamentarizm ishi, deputatlar korpusining faoliyati, qonun ijodkorligi haqidagi bilim va tushunchasini boyitishga, siyosiy tafakkur qilish va bahs-munozara madaniyatini shakllantirishga yordam bermoqda.

Bugungi kunda yoshlar huquqlari, erkinliklari va manfaatlari bilan to'qnash kelmaydigan birorta soha yo'q. Shu ma'noda Qonunchilik palatasida ko'rib chiqilayotgan har bir qonun loyihasiga, eng avvalo, yoshlar manfaatlari, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash nuqtai nazaridan kelib chiqib yondashilmoqda.

Jumladan, yaqinda Qonunchilik palatasida qabul qilingan Mehnat kodeksida, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonun va boshqa qonun hujjatlarida ham yoshlar masalalariga ustuvor ahamiyat qaratildi.

Parlament nazorati shakllaridan umumli foydalangan holda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga mas'ul mansabdor shaxslarning axborotini eshitib borishga alohida e'tibor berilmoqda.

Tan olishimiz kerakki, yoshlarga oid qonunchilik tizimini mukammal deb ayta olmaymiz. Bugungi kunda butun dunyodagi kabi bizda ham yoshlar orasida ishsizlik, kibermaniya, virtual dunyoga qaramlilik, turli zararli odatlarga ruju qo'yish kabi muammolar mavjud. Bu muammolarning yechimini topish uchun sohada tizimli olib borilayotgan ishlarimizning samarasini va sifatini oshirishimiz lozim bo'ladi.

Bu borada mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyada bugungi davr ta'ablaridan kelib chiqib yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash hamda qonunchilik amaliyotini takomillashtirish yuzasidan qimmatli fikr-mulohazalar bildirilib, g'oya va tashabbuslar ilgari surildi. Shuningdek, yoshlarga oid davlat



siyosatini amalga oshirishda mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatida uchrayotgan dolzarb muammolar olimlar, mutaxassislar ishtirokida keng muhokama qilinib, ularning faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Ishonch bilan ayta olamanki, anjuman mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha o'zaro fikr almashish maydoni vazifasini o'tadi. Eng asosiysi, mazkur yo'nalishdagi islohotlarning mazmun-mohiyatini xalqimizga, keng jamoatchilikka yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.



PARALIMPIA SPORT TURLARI RIVOJLANTIRILADI

Yoshlar ishlari agentligi va Milliy paralimpiya qo'mitasi o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Yoshlar ishlari agentligi Milliy paralimpiya qo'mitasi bilan hamkorlikda imkoniyati cheklangan sportchilar o'rtasida turli musobaqa va ijtimoiy loyihalarni o'tkazib kelmoqda. Mazkur memorandum nogiron yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, paraspot turlariga jalb qilish uchun shart-sharoitlarni kengaytirish hamda ular o'rtasida sport bilan shug'ullanuvchilar qamrovini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda
800 mingga yaqin
nogiron shaxslar
mavjud.

MUXLISA NASIMOVA,
14 YOSH,
"YOSH KITOBXON" TANLOVI
10-14 YOSH TOIFASIDA
1- O'RIN SOHIBASI.
BUXORO SHAHRIDA TUG'ILGAN.

“YUZIMIZNI YORUG' QILASAN!” DERDI ONAM

Qarshidagi ko'zlarida o't chaqna b turgan qizaloq atigi 14 yoshda. O'qigan ikki yuzdan ortiq asarlaridagi qahramonlar taqdiri haqida kuyunib gapiradi. Kichik jussasiga shuncha ishtiyoq, shijoat qayerdan paydo bo'ldi ekan? O'yinqaroqlik, sho'xliklarni bir chetga surib, kitob mutolaasiga sho'ng'ishga, katta muvaffaqiyatlarga erishishiga bu qizni kim undadi? Unga o'yinchoq yoki telefon emas, kitob tutgan qo'llar kimniki?

Shu savollar tinchlik bermay, farzandining yutug'idan boshi ko'klarga yetgan otaga yuzlanaman.

– Qizimizni yoshligidan har xil to'garaklarga qo'yib, uni band qilishga urinardik. – deydi “Yosh kitobxon” tanlovi g'olibi, buxorolik maktab o'quvchisi Muxlisa Nasimovaning otasi Narzulla aka. – Shaxmatga, gimnastikaga oz fursat qatnashib ko'rgan, lekin adabiyotga kelganda o'zgaracha mehr bilan yondashgan edi. Har bir yodlagan she'ri, o'qigan kitobi uchun rag'batlantirardik. Sovg'a esa albatta, turli kitoblar bo'lar, bobosi ham har safar nafaqasidan yangi kitob olib berar edi.

– Demak, Muxliseda adabiyotga qiziqish yoshlikdan bo'lgan?

– Muxlisa 4-sinfliqida Muhammad Yusufning “Xalq bo'l, olim” she'riy to'plamini to'liq yodlab chiqadi. 6-sinfliqidan “Yosh kitobxon” tanloviga tayyorgarlikni boshladi.

– Tayyorgarlik davomida unga yo'l-yo'riq ko'rsatish, mulohazalarini tinglash uchun vaqt topa olarmidingiz?

– Albatta, ro'yxatdagi har bir asarni o'qib, xulosalarini bizga aytib berar edi. Biz qizimizni eshitib, kamchiliklarini tutardik. Bu yilgi tanlovda ham uning

ro'yxatidagi asarlarni oila d'zolarimiz bilan taqsimlab o'qiclik, fikr almashdik, mulohaza qilclik. Qizim bizning e'tiborimiz, vaqt ajratayotganimizni ko'rib, keraksiz va vaqtini o'g'iraydigan nasarlardan voz kecdi.

Ota-ona uyda televizor ko'rib, farzandidan kitob o'qishni talab qilsa, u buni jazodek his qiladi. Biz butun oila tanlovga tayyorgarlik paytida qizimizga muhit yaratish uchun kitob mutolaa qildik, televizordan imkon darajasida uzoqlashdik. Hatto buni ko'rgan, uch yoshli farzandimiz rasmiy kitoblarni bo'yashga va biz nima qilsak, takrorlashga harakat qilardi. Mehnatimiz natija berdi.

Aslida bizning g'alabamiz “Spark” emas, farzandimizni kitobga oshno qilganimiz, kitob o'qishga mehrini oshirganimiz. O'qigan asarlaridan olgan xulosalari farzandimizga abadiy xizmat qilishini o'ylab, xursand bo'laman.



SHAXSIY KUTUBXONAMDA 600 DAN ORTIQ BADIY, ILMIIY, SHE'RIIY KITOBLAR BOR.

“Yoshlar ovozi” muxbiri Shahruxa SATTOROVA suhbatlashdi.

“

QIZ BOLASAN, KO'P GAPIRMA, ARALASHMA, QIZ BOLASAN, SENGA YARASHMAYDI, UYAT BO'LADI-YA! QIZ BOLASAN, QIZ BOLASAN...

Tasanno, bu ota farzandiga bunchalar o'ziga xos tarbiya berib o'stiriyapti! Ro'zg'or xarajatlaridan orttirib, qiziga kitob ko'tarib kelish, choyxonada oshnalar bilan guring o'rniga dilbandining o'qigan kitoblarini muhokama qilish uchun odam qanday bo'lishi kerak o'zi?!

– Muxlisa, tanlovda uchinchi marotaba ishtirok etishingiz Mag'lubiyatlardan keyin ham harakatdan to'xtamasligingizga nima turtki bo'ldi?

– G'alaba qozonish oson emas. Ko'p mehnat qilish kerak. Hayotda

qiyinchiliklar, to'siqlar borligini tushunish muhim. Ularni yengish, mag'lubiyatdan keyin ham g'alabaga intilish – eng asosiysi. Bu tanlovda birinchi marta 6-sinfliqimda qatnashganman. Bir necha muvaffaqiyatsizliklardan so'ng ham yana qatnashishim uchun kitoblardan olgan xulosalarim menga kuch berdi, o'zimda kurashuvchanlik qobiliyatini rivojlantirdim. Albatta, tanlovda g'alaba qozonishimga ko'pchilik umid qilgandi. Qolaversa, ota-onam bildirgan ishonch, yaratib bergan sharoit tufayli ham yarim yo'ldan qayta olmasdim.

– “Qiz bola o'qishi shart emas, u asosan, ro'zg'or ishlari bilan band bo'lishi kerak”, degan gaplar tez-tez qulog'imizga chalinadi. Bu fikrlarga qanday munosabatdasisiz? Ro'zg'or ishlari onangizga yordam berasizmi?

– Qiz bolasan, ko'p gapirma, aralashma, qiz bolasan, senga yarashmaydi, uyat bo'ladi-ya! Qiz bolasan, qiz bolasan... Shunga o'xshash taqiqlar hech bir qizga begona emas. O'ylab qolaman: qiz bolaga nima mumkin o'zi? O'qiyman, biror kasb egallayman, desa, darrov birovning xasmsan, seni o'qitib foyda topamanmi, deydigan ota-onalar ham talaygina. O'zining haqini talab qilolmaydi, orzularini baralla aytolmaydi, o'zi xohlagandek yashay olmaydi, faqat so'zsiz jim bo'lish, e'tirozlarisiz yashash, uy

bekasi, ona bo'lish uchun yaratilgandek, go'yo...

– Kitob o'qish eng sevimli mashg'ulotingiz ekanligi aniq. Kitobxon Muxlisaning boshqa qiziqishlari ham bormi?

– Chet tillarini o'rganishga qiziqaman. Ayni damda ingliz tilini o'rganishga kirishdim.

– Kelajakda rejalaringiz qanday, qaysi o'quv yurtida o'qishni istaysiz?

– Niyatim Toshkentdagi Vestminster universiteti talabasi bo'lish. Kelajakda qiladigan ishlarim ham ayni shu yo'nalishda bo'ladi. Bundan tashqari, Zulfiya davlat mukofoti sohibasi bo'lish niyatim bor.



ko'zim qiziga mehr bilan tikilayotgan onaga tushadi. Qizi tanlov uchun uzoq yo'llarga chiqqanda beminnat hamroh bo'ladigan ona. Farzandi o'qiyotgan kitoblarni u bilan barobar o'qiydigan jonkuyar. Bo'yi yetgan qizim turganda men uy tozalaymanmi, men ovqat qilamanmi, demagan fidoyi. Qiziqsinib so'rayman:

– Muqaddam opa, ko'ryapman, hamma qatori tinchgina yashab yuribsiz. Ammo hamma qatori qoliplardan chiqish qiyin bo'lmadimi?

– Ulug'lar aytadi: “Bir odamning o'g'il va qiz farzandlari bo'lsa-yu, faqat birini o'qitishga qurbi yetsa, qizini o'qitsin. Sababi o'g'il bolaning o'qishi bir kishining, ayol kishining o'qishi esa butun oilaning ilmli bo'lishidir”. Men ham har qanday vaziyatda qizimning ilm olishini qo'llab-quvvatladim, u bilan birga harakat qildim. Uning nafaqat kitob o'qishi, balki boshqa qiziqishlarini ham hurmat qilaman.

Qizimga: “O'qish kerak, sen ertaga bizning yuzimizni yorug' qilasan, sen bilan faxrlanib yurishni xohlayman”, – deyman.



KITOBSEVAR MILLAT

Yaxshi odatlar o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, bunda o'z vaqtida berilgan to'g'ri yo'nalish muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda respublika miqyosida kitobxonlikni targ'ib qilishga, yoshlarni kitobsevar qilib tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar o'z natijalarini ko'rsatayotgani quvonarli hol. Ayniqsa, "Kitob o'qigan – "Spark" minadi" degan qarashning paydo bo'lishi oramizda kitob muxlislarining yanada ko'payishiga sabab bo'lmoqda.



Shunday xayrli maqsadda "Kitobsevar millat" shiori ostida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat markazlari va Toshkent shahrida II Respublika "Kitobxonlik haftaligi"ga start berildi.



Dastlab haftalik doirasida Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonada "Kitobsiz kelajak yo'q" shiori ostida Alisher Navoiyning "Тебя люблю я, жизнь" hamda "Meine schwarzauge" nomli rus va nemis tiliga tarjima qilingan g'azallar to'plami taqdimoti, yozuvchi-dramaturg Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" pyesasi asosida "Smart school" xususiy maktab o'quvchilari ishtirokida muloqot va sahna ko'rinishlari, "Mehr kutubxonasi" loyihasi doirasida sayyor tadbirlar bo'lib o'tdi.

Poytaxtimizdagi "Magic city" bog'i haftalikning eng qizg'in nuqtasi bo'ldi. Bog' bo'ylab kitobxonlarning turli nashriyotlar tayyorlagan yarmarka rastalarida o'zlari izlagan kitoblarni sotib olish bilan birga bir-birlariga asarlarni tavsiya qilib, hadya etishayotganidan ko'rish mumkin, haftalik endigina ikkinchi bor o'tkazilayotgan bo'lishiga qaramay, kitobxonlarni bir davraga birlashtira oldi.

Bolajonlar uchun "Kitob olamiga sayohat" teleko'rsatuvi doirasida qiziqarli viktorina, aktsiya, savol-javob o'yinlari, kitob yarmarkalari bo'ylab ekskur-



siyalar, "Nur" bolalar kitobi ta'lim chiqishlari, nashriyotlarning kitoblari taqdimoti o'tkazildi. Respublikamiz bo'ylab arzonlashtirilgan narxlarda kitobxonlar e'tiboriga havola etilgan yarmarkalarda nashriyot va kitob savdosi tashkilotlari tomonidan turli aksiyalar ham bo'lib o'tmoqda.

Haftalikning eng qiziqarli va unutilmas voqealari, kitobsevar xalqimiz uchun tayyorlab qo'ygan sovg'alari hali oldinda. Turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, 300 ga yaqin kitoblar taqdimoti, o'nlab taniqli, yosh, iste'dodli adib-shoirlar bilan uchrashuvlar, kitob savdosining ko'rgazma yarmarkalari, intellektual sovrinli viktorinalar ishtirokchisiga aylanmoqchi bo'lsangiz, poytaxtimizdagi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida, "Magic City" istirohat bog'i hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat markazlarida bo'lib o'tayotgan II Respublika "Kitobxonlik haftaligi"ga tashrif buyuring.

177

IMKONIYAT



ISHSIZ FUQAROLAR, KAM TA'MINLANGAN OILA A'ZOLARI, TASHQI MEHNAT MIGRATSİYASIDAN QAYTIB KELGAN SHAXSLAR UCHUN SUBSIDİYALAR

Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi tomonidan quyidagi faoliyat turlari uchun subsidiya ajratilishi belgilangan:

- yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish uchun – bazaviy hisoblash miqdoring 30 baravarigacha;
- sug'orish vositalarini xarid qilish uchun – bazaviy hisoblash miqdoring 10 baravarigacha;
- urug'liklar va ko'chatlar sotib olish uchun – bazaviy hisoblash miqdoring 3 baravarigacha.

Imtiyozga da'vogarlar:

- ishsiz fuqarolar;
- kam ta'minlangan oilalar a'zolari;
- tashqi mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslar.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Moliyaviy imtiyozlardan foydalanish uchun da'vogarlarni shaxsni tasdiqlovchi va mehnat faoliyatiga doir (ishsizligini tasdiqlovchi) hujjatlari bilan tuman va shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga murojaat qilishlari lozim.

Imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.

736 MING FUQARONING BANDLIGI TA'MINLANGAN

Kecha Prezidentimiz raisligida mahallabay ishlash tizimi natijadorligini oshirish hamda aholi bandligini ta'minlash masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda ikkita muhim masala: hokim yordamchilari uch oylik faoliyatining dastlabki natijalari hamda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha birinchi chorakda amalga oshirilgan ishlar muhokama etilib, Bosh vazir o'rinbosarlari, viloyat, tuman va shahar hokimlari ayni shu masalada hisobot berdi.

Qayd etilishicha, hokim yordamchilari uch oy davomida **35,3 million** aholi yashaydigan **6 million 900 ming** xonadonni to'liq xatlovdan o'tkazib, ularni **4 ta toifaga** – kam daromadli (**11%**), doimiy daromadli bo'lsa ham, qo'shimcha daromadga ehtiyoji bor (**47%**), ijtimoiy himoyaga muhtoj (**6%**), iqtisodiy ahvoli yaxshi, o'ziga to'q oilalar (**36%**)ga ajratdi. Joylardagi mutasaddi rahbarlar va hokim yordamchilari birinchi va ikkinchi toifadagi xonadonlar bilan ishlab, **736 ming** fuqaroning bandligini ta'minladi hamda **54 ming** fuqaroni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitdi.

Eng yaxshi natija ko'rsatgan **14 nafar** hokim yordamchilarini mukofotlash, ijobiy natijaga erishgan **2 ming 943 nafar** hokim yordamchilariga tashakkurnoma yuborish rejalashtirildi.

"Hali **40 foiz** mahallada hokim yordamchilarining ishida natija ko'ringani yo'q. Misol uchun, **450 ta** mahallada ishsizlik darajasi **20 foizdan** yuqori. Bunday mahallalar soni Toshkent viloyatida **59 ta**, Farg'onada **52 ta**, Andijonda **45 tani** tashkil etib, qolgan hududlardan ko'p", – dedi Prezident. Davlatimiz rahbari joylardagi ayrim hokim yordamchilari "kredit, subsidiya, yer olib beraman", deb ta'magiriklik qilayotgani ham juda achinarli holatini ta'kidlagan.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari oldiga "qoniqarsiz" deb baholangan **3 ming 636** nafar mahallaga shaxsan borish va muammolarni hal qilish vazifasi qo'yildi.

Shuningdek, majlisda kambag'allikni qisqartirish, odamlarga daromad manbalarini yaratish maqsadida qator imtiyoz va qulayliklar yaratish bo'yicha aniq ko'rsatma va topshiriqlar berilgan.

G'OLIBLAR BO'ZATOVDA BELLASHADI

Yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish mamlakat rivojining asosiy tamal toshlaridan biri. Axborot texnologiyalaridan foydalana olish va kitobxonlik zamonaviy yoshlardan talab etiladigan jihatlardir.

Ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda tengdoshlari bilan kuch sinashib, bilim va ko'nikmalarini yanada oshirishi uchun respublika bo'ylab tashkil etilayotgan "Besh tashabbus olimpiadasi" qizg'in pallaga kirib bormoqda. Olimpia doirasida 8 ta yirik tanlov va musobaqa o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Shu kunlarda "Yoshlar ovozi" tanlovi hamda voleybol va yengil atletika musobaqalarining mahalla, sektor va tuman bosqichlari bo'lib o'tmoqda. Kecha "Bo'zatov FEST" "Yoshlar ovozi" tanlovining hududiy bosqichiga start berildi. Hududiy bosqich 18-27-aprel kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrida bo'lib o'tadi. Mazkur bosqichda 1-o'rinni egallaganlar finalga - Bo'zatovga yo'l oladi!

HUDUDIY BOSQICH BOSHLANMOQDA

"Yoshlar ovozi" festivalining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichi bo'lib o'tadi. Unda tanlovning quyi bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan iqtidor egalari 10-15, 16-22 va 23-30 yosh toifalari bo'yicha an'anaviy ijro, baxshichilik, estrada va opera yo'nalishlarida iste'dod va mahoratlarini namoyish etadi.

Yakunda har bir yo'nalish va yosh toifasi bo'yicha 1 nafardan g'oliblar aniqlanib, keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Xorazm viloyatida ushbu festivalning tuman va shahar

bosqichlari yakunlandi. Endi navbat viloyat bosqichiga. Unda tuman va shaharda an'anaviy ijro va baxshichilik, estrada va opera yo'nalishlarida g'olib bo'lgan 12 nafardan, jami 156 nafar ishtirokchi 10-15, 16-22 va 23-30 yosh toifalari bo'yicha o'z iqtidorlarini namoyan qilishadi.

SAMARQANDLIKLAR HAM FAOL

Samarqand viloyatidagi 1126 ta mahallaning har birida yoshlar ishtirokida voleybol, mini futbol, shaxmat, shahka, stol tennis musobaqalari o'tkazilmoqda. Samarqand shahridagi "Bog'i Feruz" mahallasida ham musobaqalar qizg'in o'tdi. Unda 11-15 va 16-21 hamda 25-30 yosh toifasida 286 nafar o'g'il-qizlar o'zaro bellashdi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida har bir mahallada voleybol musobaqasi ham qizg'in davom etmoqda.



"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkazilayotgan musobaqa va tanlovlarda ishtirok etish uchun mahallangizdagi yoshlar yetakchisi bilan bog'laning. Yoshlar yetakchisining aloqa ma'lumotlarini esa @Smartmahallabot telegram botidan topasiz. Tadbirlar manzillari bilan Yoshlar ishlari agentligining rasmiy telegram kanalida tanishishingiz mumkin.

Lobar QODIROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



"YOSH KITOBXON OILA" RESPUBLIKA TANLOVI

30 NOMDAGI
KITOBLAR DOIRASIDA O'TKAZILADI

MAS'UL VAZIRLIK VA IDORALAR

18 YOSH DAN
30 YOSH GACHA

TANLOV YOSH TOIFASI

TANLOV BOSQICHLARI, O'TKAZILADIGAN MUDDATI VA JOYI

MAHALLA BOSQICHI	29-30-APREL	MAHALLADAGI	TV
MAHALLA BOSQICHI	29-30-APREL	MAHALLADAGI <small>ta'lim muassasalari yoki kutubxonalarda</small>	Tanlovning hududiy va respublika bosqichlari televizion formatda o'tkaziladi
SEKTOR BOSQICHI	1-10-MAY	SEKTORDAGI <small>ta'lim muassasalari yoki kutubxonalarda</small>	Tanlovda 30 MING dan ortiq yosh oila qamrab olinishi kutilmoqda <small>(2021-yilda 10 mingga yaqin yosh oila qamrab olingan)</small>
TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI	15-MAY	KUTUBXONA <small>yoki madaniyat markazida</small>	Tanlovda ishtirokchilar @YOSHLARMUROJAATI_BOT orqali ro'yxatdan o'tadi
HUDUDIY BOSQICH	1-10-IYUN	YOSHLAR MARKAZIDA	Xarajatlar hududiy "YOSHLAR DAFTARI" jamg'armasidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi
RESPUBLIKA BOSQICHI	22-23-IYUN	TOSHKENT SHAHRI <small>Adabiy xiyobonida</small>	

1 MAHALLA BOSQICHI 29-30-APREL

- Tanlovda ishtirok etmoqchi bo'lgan yosh oilalarning arizalari oila a'zolaridan biring (er yoki xotin) nomidan topshiriladi
- Mahalla bosqichida savol-javob asosida 1 ta yosh oila saralab olinadi va tanlovning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

2 SEKTOR BOSQICHI 1-10-MAY

- Mahalla bosqichida g'olib bo'lgan yosh oilalar 1 ta shart ("Bodily asarlar bilimdoni") asosida sektor bosqichida o'zaro bellashadilar
- Sektor bosqichida g'olib bo'lgan yosh oila tanlovning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

5 RESPUBLIKA BOSQICHI 22-23-IYUN

- Hududiy bosqichlarda g'olib bo'lgan yosh oilalar tanlovning respublika bosqichida o'zaro bellashadi
- Tanlovning respublika bosqichi 3 ta shart ("Bodily asarlar bilimdoni", "Tezkor savol-javob", "Ertak mavzu") asosida o'tkaziladi

3 TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI 15-MAY

- Sektor bosqichida g'olib bo'lgan yosh oila tuman (shahar) bosqichida o'zaro bellashadi
- Tuman (shahar) bosqichlari 2 ta shart ("Bodily asarlar bilimdoni", "Tezkor savol-javob") asosida o'tkaziladi

4 HUDUDIY BOSQICH 1-10-IYUN

- Tuman (shahar) bosqichida g'olib bo'lgan yosh oilalar hududiy bosqichida o'zaro bellashadilar
- Tanlovning hududiy bosqichlari 2 ta shart ("Bodily asarlar bilimdoni", "Tezkor savol-javob") asosida o'tkaziladi

"Yoshlar ovozi" da yangi uchqunlarni kashf etamiz.

Shahribonu RAHMATOVA

Mening Lolitam

hikoya

Dunyodan mehr ko'rmay o'tgan insonlarga bag'ishlayman.



Men katta oziq-ovqat do'konining salat bo'limida ishlayman. Ishga kelganimga 6 oydan oshdi. Boshqalar bilan munosabatim juda yaxshi. Kaminani ko'rishi bilan xizmatchilarning kayfiyati ko'tariladi.

Do'konda ishlab juda qiziq voqealarga guvoh bo'ldim. Vaziyatga qarab insonlarning aktyorlik mahorati ishlab ketishi, puli yetmagan mahsulotdan bitta kamchilik topib, xaridni bekor qilishi chetdan kuzatib turgan odamga kulgili tuyiladi. Ba'zida do'konda tanish chehralarni ko'rib qolaman. Doimiy xaridorlarga turli nomlar qo'yish eng sevimli ishlarimdan biri. Masalan, "Chimchi" ustozimning laqabi.

Universitet ma'ruzalarida, asosan, orqa qatorda o'tirganim uchun ustozim meni tanimaydi. Uning qiziq odati bor. U dastavval barcha salatlarni obdan ko'zdan kechiradi va doim sabzidan tayyorlangan "chimchi" salatidan 5 ming so'mlik oladi. Mobodo ko'proq olsa, "bugun bayrammi?", - deb yuborgim keladi.

Doimiy xaridorlardan yana biri Lolita laqabli yoshi elliklar atrofidagi oriq, kalta bo'yli, nimjonga rus ayoli. Uni ko'rgan sheriklarim har tomonga o'zini olib qochadi. Lekin u mening eng sevimli xaridorim. Vladimir Nobakovning "Lolita" asari qahramoniga o'xshatganim uchun bu xaridorimni shunday atayman. Lolita xola nima muammosi bo'lsa, hammasini aytib, hech narsa xarid qilmay ketadi.

Bir kuni gap orasida oynavand to'siq ustidan pasportini uzatib, "Pensiya oldim, kolbasa ber", - deb qoldi. Pul bordir degan umidda pasportning ichiga qarasma, "pensiya" deb yozilgan oq qog'oz chiqdi. Nima qilishni o'yab qoldim va men ham qog'ozga qalin qilib "kolbasa" deb yozib berdim. Lolita xursand bo'lib kassa tomon ketdi. Muammoni hal qilish kassa xodimlarining chekiga tushdi, shekilli. Sheriklarim "Ishni ham qoyillatasiz-da", - deb kulishadi. Shu kabi qiziqarli voqealar bo'lgani sabab bu do'konda ishlash jon-u dilim edi.

Sadaqa bermay ketgan tilanchilarning qarq'ishi urdimi bilmayman, bir tekis ketayotgan hayotim izdan chiqdi. Ijarada yashayotgan uyimning egasi kunora har xil erkaklarni uyga olib kela boshladi, bu ham yetmaganday ijara pulini ko'paytirib yubordi. Sigareta va peshob hidli anqib turadigan bu uyni xushlamay, yarim tungacha shahar ko'chalarida izg'iydigan, faqat yuvinish va uxlash uchun boradigan bo'ldim.

Bir kuni ayol bilan qattiq tortishib qoldim va ichimga yig'ib yurgan barcha gaplarimni yuziga aytib tashladim. Ko'rinishidan boy ayolday taassurot uyg'otuvchi, jimjiligidan to bosh barmog'igacha uzuk taqib, sochi-yu ko'z-qoshini tim qaraga bo'yab yuruvchi xonim dastlab so'zla-

rimdan dovdirab qoldi. Chunki bir og'iz so'zsiz uyni tozalab, idish-tovog'igacha yuvib yurgan yuvosh qizning tili borligini bilmagandi-da.

Shu bilan uydan chiqib ketdim. Soat tungi o'n. Asabiylashgan chog'da miyaga jo'yali fikr ham kelmaydi. Yuklarimni yonimga qo'yib, yo'l chetiga o'tirdim. Boshimni oyoqlarim orasiga olib, musiqa tinglay boshladim. Chamasi 5 daqiqadan keyin kimdir yelkamdand turtdi. Boshimni ko'tarsam ro'paramda Lolita jilmayib turibdi. Nima deb so'z qotishni bilmay, indamay turaverdim. Bir payt yuklarim solingan chemodanni sudray boshladim. Endi jahl bilan gapirmoqchi bo'lib turganimda, "ketdik" deya boshi bilan oldinga ishora qildi. Bir yerda o'tirgandan foyda yo'q, Lolita bilan biror sarguzashtni ko'ramanda deb, orqasidan ergashdim.

II

Lolitaning uyida yashayotganimga ham uch kundan oshdi. 9 qavatli binoning 3-qavatida, oshxona va bir katta xonadan iborat. Ancha yildan beri ta'mir ko'rmagan, devorlariga turli davlat aktyorlari suratleri, eski davrdan qolgan teatr chip-talari ilib tashlangan, muzlatgich, shkaf va televizordan iborat sokin uy.

Odatda Lolita bilan ko'p gaplashmaymiz, lekin suhbatimiz qizisa, soatlab birga o'tiramiz. Menga uning antiqa mavzudagi hikoyalari yo'qadi, gapirayotgan mavzusi to'g'risida savol bersam, qayerdandir kutilmagan javoblarni olib keladi. Kundalik muloqotimizdagi suhbatlar ham shunga o'xshardi.

Qayerdan kelayotganini so'rasam, "singlimni bog'chaga tashlab kelyapman", - derdi jilmayib. Aslida bunday bo'lmagani kundek ravshan. Menimcha, u xotirasidagi har qanday gapni saralab o'tirmay, aytilib yuboraveradi.

Birgalikdagi hayotimizning ikkinchi haftasida u bilan jiddiy mavzularda gaplashishga harakat qildim:

- Lolita xola, uyingizda yashaganim uchun qancha pul beray?

- Iya, bu sening uying-ku. Istaganingcha yashayver, meni haydab yubormasang bo'ldi.

Bu savolga tuzuk javob ololmagach, boshqa savol berdim:

- Lolita xola, ismingizni kim qo'ygan?

- Sen.

- Pasportdagingisini so'rayapman.

- Pasportdagingisini bilmayman. Meni Lolita deb chaqirasan-ku, men Lolitam.

- Sizning xarakteringizni bir kinodagi qiznikiga o'xshatganim uchun shunday chaqiraman. Mayli, boshqa savol beraman, uyingizdagilar

qayerda, yaqinlaringiz bormi?

- Ular katta davlatlarda yashashadi, zo'r uylari bor. Suratlarini ko'rasanmi?

- Abatta, - dedim men. Suhbatimiz jiddiylashtirish boshlaganimdan xursand bo'ldim.

Lolita o'zining jamiki narsalari solingan javondan suratlarini topgunicha ikki daqiqa o'tdi, chamamda. Nihoyat yonimga o'tirib, yaqinlarini tanishtira boshladi.

- Bu dadam. U juda yaxshi odam, hazilkash, sport bilan shug'ullanadi.

Ko'rsatgan suratida Jeki Chan shlyapa kiyib, jilmayib turibdi. O'tirgan joyimda kulgidan o'lib qolayozdim, qo'shilib Lolitaning o'zi ham kuldi. I-rasmining ta'sirida 5 daqiqacha dumalaganimdan so'ng navbatdagingisiga o'tdik. Rus xonandasi Alla Pugachyovanning qizil ko'ylakdagi surati:

- Bu onam. O'vozi juda chiroyli, chaqaloqligimda aytgan allasini hali ham eslayman...

Biz yana xandon otib kuldik. U qolgan qarindoshlarini ham shu zaylda tanishtirdi. Kundan kunga munosabatimiz ham, yashash tarzimiz ham yaxshilalanib bordi. Lolita yaxshi ko'rib qoldim. Biz birga ovqat tayyorlardik, sayr qilardik. U bir vaqtning o'zida ham do'stim, ham onam, ham bolam edi.

III


Lolitaning hayoti, xarakteri va o'tmishi bilan bog'liq savollar meni juda qiyndirdi. Lolita ruhiy kasallar ro'yxatida turar ekan. Vaqti-vaqti bilan shifokor kelib, undagi o'zgarish va dori-darmonlarni tekshirib ketardi.

Shifokorning aytishicha, Lolitaning ahvoli kun sayin yomonlashib bormaypti, bora-bora o'zini umuman boshqara olmaydigan darajaga borib qolishi mumkin ekan. Qo'limdan unga ko'proq e'tibor qaratish, parvarishlash, yolg'iz qoldirmaslik kelardi, xolos.

U gohida o'zini boshqacha tutardi. Ba'zan sochlarimni silab, o'rib qo'yishga harakat qiladi, ba'zida onasining tizzasiga bosh qo'yib yotgan bola kabi tutadi o'zini. Men esa unga alla aytib beraman. Umrida onasi sochini o'rib qo'ymagan, birovga diildagini aytmagan qizga Lolitaning harakatlari juda yoqimli tuyulardi. Biz g'alati rishta orqali bir-birimizga bog'lanib qoldik.

Lolitaning uyida yashay boshlaganimga 2 oy bo'lmasidan u uydan chiqmay qo'ydi. Ko'chadan kelishim bilan pinjimga o'zini urardi. Bir kuni alla aytib o'tirgan paytim, u qimirlamay qoldi. Qo'limni boshidan yuragi tomon olib bordim. Men uchun vaqt ham to'xtadi.

Men Lolitamni sira unutilmadim, shunchaki unutilmadim. Oila a'zolarini va yaqinlarimdan ko'rmagan mehr va e'tiborni beg'araz, sodda va tanasi dard bilan to'lgan devona ayol bera oldi.



AHOLINI RO'YXATGA OLISH 2023-YIL BOSHLANADI

Har qanday davlatning tarixi, birinchi navbatda, unda yashaydigan xalqning tarixi, aholisining soni va tarkibi, uning iqtisodiy hamda ijtimoiy tavsiflarida o'z ifodasini topadi. Aholi soni bo'yicha aniq va yaxlit ma'lumotlar aholini ro'yxatga olish asosida olinadi.

Shu asnoda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, aholini ro'yxatga olish 2023-yilda o'tkazilishi belgilandi. Aholini

ro'yxatga olish nafaqat aholi soni va demografiyasi, balki oilaviy ahvoli, yashash sharoiti, bandligi, jinsi, yosh darajalari, fuqaroligi, hududlardagi aholi zichlik darajasi hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari haqida ishonchli ma'lumot to'plash imkonini beradi.

Hilola QAMARIDDINOVA, O'limazor tumani statistika bo'limi bosh mutaxassisi.

MODUL5

LOYIHA HAQIDA

MODUL5 - Muvaffaqiyat, Omad, Do'stlik, Umid, Liderlik so'zlarining bosh harflari jamlanmasidan olingan bo'lib, mutlaqo ijtimoiy loyiha hisoblanadi, 2019-yil sentabr oyida "Loyihalar boshqaruv markazi" va Yoshlar Ittifoqi tomonidan ilk bor tashkil etilgan.

Loyiha yoshlarga turli yo'nalishlarda mahorat darslarini berish maqsadida tashkil qilingan. MODUL5 har oyda bir marotaba 5 yo'nalishda professional soha vakillarini yoshlar bilan uchrashtiradi. Bu uchrashuv mobaynida har bir ekspert o'z yo'nalishida 555 soniyalik (9 daqiqa 25 soniya) chiqishlari davomida yoshlarga BILIM, MOTIVATSIYA va TAJRIBA ulashadi.

MUVAFFAQIYAT SARI

Hozirgi kunga qadar loyihada jami 30 dan ziyod sohada 100 ga yaqin ekspert spikerlar chiqish qilishdi. Ularning orasida chet elning yirik kompaniyalarida kuchli mutaxassis sifatida faoliyat yurituvchi o'zbek spikerlar ham bor. Undan tashqari spikerlar bilan oliy ta'lim muassasalarida navbatdan tashqari tadbirlar ham uyushtiriladi. Bundan maqsad yoshlar orasiga kengroq kirib borish. Shu kunga qadar "online" holda jami 15 000 000 dan ziyod, "offline" formatda esa 10 000 dan ortiq insonlarga yetib borishga ulgurdi.

RIVOJLANISH

Hozir loyiha ko'proq e'tiborni yosh bo'la turib ko'plab natijalar ko'rsatgan, lekin keng jamoatchilikka tanilib ulgurmagan insonlarni topish va ularni jamiyatga tanishtirish uchun izlanishlar qilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad yoshlarning ilm olishga va rivojlanishga qiziqishlarini oshirish.



Loyiha 2020-yil dekabr oyida tashkil qilingan "O'zbekiston Yoshlar forumi"da "Yilning eng yaxshi ta'lim dasturi" deb topilgan.

MODUL5



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Iqbol PARDAYEVA

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ruxsatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuatchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

"Sharaq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma tabaq. Ko'xona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-456, Adadi - 10573. Bosishga topshirish vaqti - 21.00, Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



123456